

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30.12.2019.Ped.28.01.RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

ALIMOV UMID ABDUHAMIDOVICH

**O‘SMIR DZYUDUCHI QIZLARINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARINI
HISOBGA OLGAN HOLDA JISMONIY TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari
nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati**

Chirchiq – 2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Alimov Umid Abduhamidovich

О‘smir dzyudochi qizlarning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish..... 5

Алимов Умид Абдухамидович

Физическая подготовка дзюдоисток на этапе спортивного совершенствования с учетом их биологических особенностей 29

Alimov Umid Abduxamidovich

Improving the physical fitness of teenage judo girls taking into account the biological characteristics..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 62

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30.12.2019.Ped.28.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

ALIMOV UMID ABDUHAMIDOVICH

**O‘SMIR DZYUDUCHI QIZLARINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARINI
HISOBGA OLGAN HOLDA JISMONIY TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari
nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati**

Chirchiq – 2023

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo sport amaliyotida nufuzli musobaqalar Olimpiada, jahon chempionatlari va yuqori reytingli saralash turnirlarida asosan sport zaxiralarini tanlashda 15-17 yoshli sportchilarga ahamiyat qaratilmoqda. Bunday strategik an'anaga ustunlik berish, bugungi sport amaliyotida kuniga 2-3 martadan o'tkaziladigan shiddatli mashg'ulotlar, uzoq davom etadigan musobaqa sikllarida ko'p martalab takrorlanuvchi yuklamalarga bardosh berish qobiliyati, shu jumladan, jismoniy, psixofunksional va texnik-taktik imkoniyatlarni shakllantirishga aynan shu yosh bosqichidan boshlab urg'u berilishi katta ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda dzyudochi qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, texnik va taktik tayyorlashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, harakat koordinatsiyasini takomillashtirish bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqotlar natijasida 15-17 yoshli dzyudochi qizlarning jismoniy tayyorgarliklarini ifodalovchi ko'rsatkichlar ham aynan shu yosh bo'yicha belgilangan me'yoriy ko'rsatkichlardan past darajada qayd etilmoqda. Shu bois dzyudochi qizlarning morfologik tiplariga asoslanib maxsus jismoniy va texnik-taktik harakatlarini mashg'ulot yuklamalarida taqsimlash va rejalashtirish, musobaqa va maxsus mashqlarni bajarish harakatini boshqarish va uni fiziologik tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq dzyudochi qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, texnik va taktik tayyorlashni morfologik tiplari asosida ilmiy ishlar olib borish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda turli xil kurash turlarini ommalashtirish borasida, aholining turli qatlamlari o'rtasida jismoniy madaniyatni va xotin-qizlar sportini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Dzyudoni aholi o'rtasida ommaviy sport turlaridan biriga aylantirish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish"¹ vazifasi belgilab berilgan. Dzyudo, sambo, boks, futbol, og'ir atletika, ya'ni ilgari faqat erkaklar uchun deb hisoblangan ko'plab sport turlari ayollar orasida keng tarqalmoqda. O'zbekiston yakkakurashlar maktabi vakillari, respublika xotin-qizlar terma jamoalari a'zolari va dzyudo sport turi bo'yicha ayol sportchilar yetakchi o'rinlarni olishmoqda. O'zbek dzyudochi qizlarining nufuzli xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishiga qaramay, dzyudochilarning tayyorgarlik darajasini saqlab qolish va rivojlantirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Dunyoning yetakchi dzyudochi ayollariga nisbatan ko'p hollarda o'zbek sportchilarining texnik tayyorgarligi hali ham yuqori darajada emasligidan kelib chiqib respublikada faoliyat yuritayotgan dzyudochi qizlarni tayyorlash amaliyotiga ilmiy asoslangan dasturlarni izlash va ishlab chiqish talabini qo'ymoqda. Bu muammoni hal etish yirik xalqaro musobaqalar dasturlariga yangi vazin toifalarini kiritilishi hamda bellashuv qoidalarini murakkablashishi sababli ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-iyunda "Dzyudo sport turini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-286-sonli Qarori, <https://lex.uz/>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martda “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli farmoni, 2022-yil 20-iyunda “Dzyudo sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-286-sonli hamda 2021-yil 5-noyabrda “2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi olimpiya va XVII paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ-5281-sonli qarorlariga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlar doirasida amalga oshirilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Sport tayyorgarligining zamonaviy tizimiga xos bo‘lgan tendensiyalar (mashg‘ulotlarni intensivlashtirish, yutuqlar darajasini oshirish, yosharish va erta sport ixtisoslashuvi, ish qobiliyatining genetik belgilarini hisobga olish) ayollarning trenirovkasiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi (Y.S.Kim., L.P.Yugay., T.S.Usmonxodjayev., D.D.Safarova., F.A.Kerimov., A.Yu.Bagdasarov, O.J.Dadabaev., I.B.Aliev., A.J.Tangriev., V.V. Shiyani., M.N. Shepetyuk., Y.V.Verxoshanskiy., V.A.Rogozkin., A.Karelin., V.S Kuznetsov.)²

Ayollar rekordlari darajasi doimiy ravishda oshib bormoqda va bir qator sport turlari bo‘yicha o‘shish darajasi erkaklar darajasidan ham yuqori. Biroq, ayollar sportining ilmiy asoslari sport amaliyotining ehtiyojlaridan ortda qolmoqda. Bugungi kunda dzyudo bo‘yicha o‘smir qiz sportchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar deyarli yo‘q. Jismoniy fazilatlarini rivojlantirishning mavjud usullari nafaqat dzyudoda, balki boshqa turdagi kurashlarda ham qo‘llaniladi, shuning uchun ayollar dzyudosida foydalanish juda istiqbolli emas va ayollar sport kontingentiga nisbatan aniqlashtirish kerak.

Dzyudoda ayollarni sport bilan shug‘ullanishining dolzarb muammolari, bu dzyudochi qizlarning jismoniy ish faoliyatini mezotsikllarda, tayyorgarlik davrining

² В.В. Шиян Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. Киев, 1999. – 316 с.; Rogozkin V.A Система подготовки спортсменов в Олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. Киев, Олимпийская литература, 2004., - 808 с ; А.Карелин Теория и методика физической культуры: Учебник / Под ред.проф.;; Шепетюк М.Н Теория и методика физической культуры / - М.: ФиС., 2008. – 404 с. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учеб.пособие. – М.: Академия, 2008, Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. М.: Физкультура и спорт, 2009.; Ким Ю.С, Югай Л.П, Основы дзюдо/ учебной пособие «Центр развития спортивных достижений» Ташкент 2005 139 с Югай Л.П, Нурышев Д.Е, Дзюдо/ «Программа для детско-юношеских школяолимпийского резерва», Ташкент 2017 “Ilmiy texnik axboroti” 147 с. Усмонходжаев Т.С., Болалар ва ўсмирлар спорти ривожлантириш методикаси “Ўкитувчи”, 2014.-148.Б.; Керимов Ф.А. Теоретико-методические направления совершенствования содержания и структуры дисциплины спортивная борьба: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. -М., 1995.-26 с., Сафарова Д.Д. «Спортивная морфология», учебник для студентов вузов физического воспитания и спорта // изд-во «Axborot texnika-press», Ташкент, 2021, с. 248; О.Ж.Дадобаев.- Dzyudochilarning ko‘p yillik tayorgarligi kontseptsiyasi. Dessirtatsiya. 2021.- 230 В. А.Ю. Багдасаров. к.п.н. Специфика построения соревновательной деятельности дзюдоистов высокого класса при использовании интервальной мышечной тренировки, к.п.н. диссертация. Т-2010 г 53-58 с; И.Б. Алиев. Кураш билан шуғулланувчи талаба спортчиларни машғулот юкламаларининг оптимал нисбатлари. Монография. Т.: 2021. 10-40.Б, Тангриев А.Ж. Чуқурлаштирилган босқичда ёш дзюдочиларнинг тезкор-куч қобилиятларини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш. Дисс.. 2021. 45-70-Б..

mikrotsikllarida, ayol tanasiga xos bo'lgan biologik siklning alohida bosqichlarini hisobga olgan holda, turli xil vosita harakatlarida o'rganishdir. Olingan natijalar o'quv yuklamalarini optimal variantda rejalashtirish va dzyudochi qizlarni tayyorlash jarayonini yanada samarali boshqarish imkonini beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy tadqiqot ishlari strategiyasi va istiqbolli rejasining 34.2-bandi: "Kurash sport ta'lim muassasalari mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: sport takomillashuv bosqichidagi 15-17 yoshli malakali dzyudochi qizlarning morfologik xususiyatlarini inobatga olgan holda jismoniy tayyorgarlikini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sport takomillashuvi bosqichida dzyudochi qizlarning fiziologik xususiyatlari va morfologik tiplariga asoslangan mashqlar va usullar jamlanmasini saralab olish; bellashuvlarni tashkil qilishda dzyudochi qizlarning fiziologik xususiyatlarini inobatga olib parterda qo'llaniladigan usullarga morfologik tiplari bo'yicha yaqinlashtiruvchi mashqlarni ishlab chiqish;

dzyudoda mavjud bo'lgan parter holatida muvofaqiyatli harakatlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan noodatiy mashqlar majmuasini takomillashtirish;

dzyudo sport turida tik turib bellashuvlarni tashkil qilish uchun morfologik tiplarga asoslangan usullarning ketma-ketligini mashg'ulot jarayoniga qo'llash.

Tadqiqotning ob'ekti: sifatida Respublika oliy sport mahoratini oshirish maktabi sport takomillashuv bosqichidagi 15-17 yoshli qizlarning mashg'ulot jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini: sport takomillashuvi bosqichidagi malakali dzyudochi qizlarning morfologik tiplarini hisobga olgan holda, texnik-taktik tayyorgarligining tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari: Tadqiqot davomida mavzuga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar materiallarini tahlil qilish va umumlashtirish, harakatlarni video tahlil qilish dasturi, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, so'rovnomalar, pedagogik testlash, antropometriya, dzyudochi qizlarning funksional holatini baholashning fiziologik usullari hamda matematik-statistik tahlil usuli singari usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sport takomillashuv bosqichidagi o'smir dzyudochi qizlarning morfologik tiplari (Endomorf, Mezomorf, Ektomorf) bo'yicha fiziologik xususiyatlariga asoslangan tabaqalashtirilgan mashqlar hamda ularni amalga oshirishga qaratilgan usullar jamlanmasini mashg'ulotga kiritish hisobiga texnik-taktik tayyorgarligini oshirish imkoniyati kengaytirilgan;

o'smir dzyudochi qizlarning fiziologik xususiyatlari bo'yicha parterda qo'llaniladigan usullarda morfologik tiplari uchun yaqinlashtiruvchi mashqlarni kiritish hisobiga musobaqa jarayonida faol bellashuvni tashkil qilish imkoniyati kengaytirilgan;

parter holatida muvofaqiyatga erishish uchun bir vaqtning o'zida tezkor-kuch, egiluvchanlik va maxsus chidamlilik jismoniy sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan noodatiy (jijutsu va grepping) sport turi elementlarini kiritish hisobiga usullarni samarali yakunlash imkoniyat takomillashtirilgan;

dzyudo sport turida tik turib bellashuvlar jarayonida morfologik tiplar uchun usullarni samarali yakunlashga qaratilgan (Techi-vadza kabi), texnik xarakatlarni kiritish hisobiga belashuvlarda ustunlikka erishish imkoniyati oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat.

dzyudochi qizlarning funksional holatining baholovchi yuqori sifatli va miqdoriy me'zonlarini ishlab chiqilgan, sportchilarning istiqbollari ishonchli baholash va tanlangan sport turlari, xususan, dzyudo bo'yicha raqobat natijalarining muvaffaqiyatini prognoz qilish imkoniyati yaratilgan;

mashg'ulot va musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish muammosining ustuvor jihatlarini tizimli tahlil qilish va umumlashtirish asosida maxsus jismoniy tayyorgarlikni tavsiflovchi, jismoniy sifatlarini rivojlantirishga ko'maklashadigan turli intensivlikdagi ilmiy asoslangan jismoniy mashqlar komplekslari ishlab chiqilgan;

dzyudochi qizlarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish uchun asos yaratishga imkon beradigan umumiy jismoniy va maxsus tayyorgarlik bosqichlarida yuqori egiluvchanlik va kuchlilik, chidamkorlik, tayyorgarlik, texnik yo'nalishni rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy qoidalarning chuqur nazariy asoslanib berilishi va tadqiqot apparati, tadqiqot usullarining yuqori ishonchliligi, pedagogik eksperimentlarning maqbul darajada davomiyligi va hajmi, eng ma'qul informatsion metodlar va ko'rsatkichlarni to'g'ri tanlanishi, eksperimental ma'lumotlarni qayta ishlab chiqilishi va tahlil qilishning to'g'riligi tadqiqot natijalari matematik statistika usullari bilan qayta ishlanganligi keltirilgan formulalar bo'yicha korrelyasion tahlildan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati izlanishlar natijasida erishilgan ilmiy natijalari amaliyot oldida keng miqyosidagi izlanishlarni nafaqat dzyudochi qizlarni tizimli tayyorlashda, balki boshqa kurash turlaridagi sportchi qizlarni tayyorlashda qo'llanilishi mumkin. Kurashda qo'llaniladigan klassik "aylanma bosqich" bilan bir qatorda 4 hafta davom etadigan "shiddatli bosqich" qo'llanilishi ilmiy asoslandi. Ajratilgan vaqt davomida dzyudochi qizlar organizmlarining biologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yuqori intensiv yuklamalar ta'siri bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, dzyudo sport turida mavjud parter holatida harakatlanishni rivojlantirishga xos maxsus mashqlar majmui ishlab chiqildi, ular egiluvchanlik va kuchlilik xususiyatlarini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, kuchlilik- egiluvchanlik va maxsus chidamlilik kabi xususiyatlarga yuqori darajada ta'sir ko'rsatish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. 15-17 yoshli dzyudochi qizlar misolida o'tkazilgan joriy tadqiqotlar va pedagogik tajriba natijalari asosida:

sport takomillashuv bosqichidagi o'smir dzyudochi qizlarning morfologik

tiplari (Endomorf, Mezomorf, Ektomorf) bo'yicha fiziologik hususiyatlariga asoslangan tabaqalashtirilgan mashqlar hamda ularni amalga oshirishga qaratilgan usullar jamlanmasini mashg'ulotga kiritish hisobiga texnik-taktik tayyorgarligini oshirish bo'yicha takliflar "Dzyudo nazariyasi va uslubiyati" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-son buyrug'iga asosan 166-005 raqamli guvohnomasi). Natijada o'smir dzyudochi qizlarning jismoniy ishchanlik darajasi (PWC 170) 13,95 % ni tashkil qilgan;

o'smir dzyudochi qizlarning fiziologik hususiyatlari bo'yicha parterda qo'llaniladigan usullarda morfologik tiplari uchun yaqinlashtiruvchi mashqlarni kiritish hisobiga musobaqa jarayonida faol bellashuvni tashkil qilish bo'yicha takliflar Chirchiq bolalar va o'smirlar sport maktabida shug'ullanuvchi o'smir dzyudochi qizlar mashg'ulotlariga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022-yil 21-apreldagi 03-13/1465 son ma'lumotnomasi). Natijada "Bosh va qo'llarga tiralgan holda 5 marotaba o'ng va chap tomonga aylanish" mashqini bajarish imkoniyati 13,92 % ga yaxshilangan;

o'smir dzyudochi qizlarning morfologik tiplarini hisobga olgan holda stoyka va parterda bajariladigan usullarni mashg'ulot jarayoniga kiritish bo'yicha takliflar "Dzyudo nazariyasi va uslubiyati" o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-son buyrug'iga asosan 166-005 raqamli guvohnomasi). Natijada dzyudochi qizlarni texnik harakatlari 12-14 %ga yaxshilangan;

dzyudo sport turida tik turib bellashuvlar jarayonida morfologik tiplar uchun usullarni samarali yakunlashga qaratilgan (Techi-vadza kabi), texnik xarakatlarni qo'llash bo'yicha takliflar Chirchiq bolalar va o'smirlar sport maktabida shug'ullanuvchi dzyudochi qizlar mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022-yil 21-apreldagi 03-13/1465 son ma'lumotnomasi). Natijada beldan oshirib tashlash usulini bajarish imkoniyati 22,89 % ga oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot materiallari 3 ta xalqaro, 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi: Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy maqolalar va tezislar chop etilgan bo'lib, jumladan 3 ta ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, xususan (2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) e'lon qilingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kompyuter matnining 149 sahifasida keltirilgan bo'lib, kirish, to'rtta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati, mahalliy va rus olimlaridan amaliy tavsiyalar va xulosalar keltirilgan, 5 ta ilovalarda taqdim etilgan. Ko'rgazma tasviriy material 10 ta jadval, 2 ta rasm va 2 ta dasturni o'z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va uning ilmiy-amaliy zaruriyati, tadqiqotning O'zbekistonda fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsion tadqiqotning ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi asosida amalga oshirilganligi, maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, uslublari, natijalarning ob'ektivligi, tadqiqot natijalarining amalga joriy etilishi, nashr qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

I bobda dissertatsiyaning tanlangan mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlil qilingan. Hozirgacha ayollar sporti, xususan, dzyudo bilan bog'liq muammolar mavjud. Zamonaviy dzyudoning tendensiyalari jismoniy faollikning tobora ortib borayotgan miqdorini o'z ichiga oladi, bu ko'p hollarda sportchilar sog'lig'ining yomonlashishi fonida funksional imkoniyatlar va sport ko'rsatkichlarining muddatidan oldin va yoshga hos bo'lmagan pasayishiga olib keladi. Sportchi qizlarning, intensiv sport turlarining reproduktiv tizim organlariga ta'sirining oqibatlari to'g'risida xabardorligi pastligini, shuningdek, sport muhitidagi yaqinlik va an'anaviy noziklik tufayli yangi sport turlarini rivojlantirishni hisobga olgan holda jinsiy dimorfizm tamoyillari asosida o'quv jarayonini rejalashtirish va qurishga yangi yondashuvlar ishlab chiqilishiga zarurat mavjudligi aniqlangan.

Bugungi kunga qadar ayol dzyudochilarni tayyorlash bo'yicha deyarli hech qanday uslubiy tavsiyalar mavjud emas, chunki ayol tanasining xususiyatlari erkaklarnikiga qaraganda mashg'ulot jarayonini boshqacha tashkil qilishni talab qiladi (A.V.Ivanov, I.P.Shlee, A.I.Xlopetskiy, N.Y.Nerobyev, A.F.Zekrin, FX.Zekrin, V.V.Zebzyev, R.N.Apoiko, Y.Y.Krikuxa, I.Y.Gorskaya, A.V. Shevsov). Mashg'ulot ta'siri ostida o'tadigan sportchilarning joriy moslashuvchan potensialini ta'minlash tananing barqaror faoliyatining yangi yuqori darajasiga o'tishni ta'minlashi eksperimental ravishda isbotlangan deb hisoblanadi (A.S. Solodkov, A.A.Artemenkov, B.Z.Belotserkovskiy, Y.Y.Krikuxa va boshqalar). Ruxsat etilgan yuklamalar chegarasiga amalda erishilganligini inobatga olsak, sport natijalarining yanada o'sishi dzyudochi qizlar tanasining zaxira moslashish qobiliyatiga bog'liq. Bundan tashqari, ma'lum bir biologik sikl davomida sportchilarning funksional imkoniyatlari dinamikasini o'rganish (M.G. Tkachuk, A.A. Dyusenova,) va shu bilan birga mashg'ulot jarayonini individuallashtirish potensialidan foydalanish kerak (A.I.Laptev).

Yuqori natijalarga faqat keng moslashuvchan qobiliyatga ega bo'lgan sportchilar erisha oladi. Bu muammo vosita harakatlarining zarur hajmini shakllantirishning maqbul usullarini tanlash bilan bog'liq va shu bilan birga, o'quv jarayoni ayol tanasining biologik xususiyatlarini hisobga olishga qaratilgan bo'lishi kerak. Nafaqat dzyudo, balki yakkakurashning boshqa turlariga ham ixtisoslashgan ayol sportchilarning muvaffaqiyatli sport raqobat bardoshligini faqat shunday tayyorgarlik bilan bashorat qilish mumkindek tuyuladi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ayollar sportini ilmiy asoslash masalasi yanada alohida o'rganishni talab etadi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajribani tashkil etilishshi va uni tanlangan usullar bilan utsazilishi utqazilishi taxlil qilingan. Tadqiqot maqsadlari va qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun tadqiqot usullarini tanlashning yetarliligi ko‘rsatilgan.

Tadqiqot 2020-yil sentabrdan 2022-yil martigacha 3 bosqichda olib borildi: 1-bosqichda (2020-yil) dzyudochilarning jismoniy tayyorgarligining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy-metodik adabiyotlar va boshqa manbalar tahlili o‘tkazildi. ularning biologik xususiyatlari. Pedagogik nazorat ostida “Jangovar sport turlari bo‘yicha respublika oliy sport mahorati maktabi”da dzyudo bo‘yicha o‘smir qizlar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Bu davrda dzyudochilar bilan an’anaviy mashg‘ulotlar o‘tkazish tajribasini o‘rganish maqsadida, MC-oylik sikli kursining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, dzyudochilar va murabbiylardan iborat respondentlar o‘rtasida so‘rovnoma tashkil etildi.

II bosqichda (2021-yil) eksperimentni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha doimiy izlanishlar olib borildi. Dastlabki bosqichda 15-17 yoshli dzyudochilarning jismoniy tayyorgarligi, funktsional holati va jismoniy rivojlanish darajasini morfologik, funktsional usullar, shuningdek, pedagogik tekshirish usullari baholandi. Tajribada har birida 14 kishidan iborat nazorat (CG) va eksperimental (EG) guruhlari ishtirok etdi. CG eksperiment davomida an'anaviy mashqlar bilan shug'ullanishni davom ettirdi, EG uchun esa jismoniy faoliyatni rejalashtirish MCning vaqtini va bosqichlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va maxsus mashqlarni tanlash (bir qator usullar va mashqlarni ishlab chiqish). somatotiplar toifalarini hisobga olgan holda) dissertant tomonidan ishlab chiqilgan

III bosqichda (2022 yil) tajribaning yakuniy bosqichlari matematik statistika usullaridan foydalangan holda miqdoriy natijalarni qiyosiy tahlil qilish bilan amalga oshirildi. Tajribaning turli bosqichlarida olingan natijalar asosida xulosalar tuzildi.

“Dzyudochi qizlarni jismoniy va funktsional tayyorlash metodikasining pedagogik ekspertizasi” deb nomlangan uchinchi bobida taqdim etilgan tadqiqot usullaridan foydalangan holda bir qator muammolarni hal qilishga imkon berdi, xususan:

Ayollar yakkakurashning noan’anaviy turlariga, dzyudoga ixtisoslashgan qizlarni sportga tayyorlash nazariyasi va metodologiyasini rivojlantirishga oid zamonaviy qarashlarni nazariy umumlashtirish amalga oshirildi.

Ma’lumot beruvchi pedagogik testlar asosida dzyudochilarning tadqiqot boshlanishidan oldin va amaliy tajriba dasturidan so‘ng umumiy va maxsus jismoniy va texnik tayyorgarligini baholash uchun o‘tkazildi. Maxsus vosita fazilatlarini ko‘rsatkichlarining sezilarli o‘sishi dzyudochilarning texnik harakatlarini yaxshilash va muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam berdi, bu maxsus jismoniy

tayyorgarlik darajasining oshishi biz tomondan ishlab chiqilgan va qo'llanilgan eksperimental dasturning samaradorligidan dalolat beradi.

Tadqiqot guruhida pedagogik eksperimentning birinchi bosqichida 6 hafta nazorat guruhidagi kabi bir tekis taqsimlandi. Keyingi 6 hafta davomida TGda yuqori intensivlikdagi mashqlar - tezlik, kuch, tezkor-kuch va texnik yo'nalishni kiritish hisobiga yuklamalarning hajmi oshib bordi. Keyingi 8 hafta davomida fiziologik va texnik ko'rsatkichlar musobaqadan oldingi davrga nisbatan biroz o'zgarib, bir xil darajada qoldi. Mashg'ulot jarayoniga kiritilgan o'ziga xos mashg'ulot vositalari va usullari muhim musobaqalar jarayonida duch keladigan sharoitlarni taqlid qildi, bu dzyudochilarning texnik mahoratini, alohida chidamlilik darajasi va kuch sifatlarini oshirish imkonini berdi.

Antropometriya usullaridan foydalanish ko'rikdan o'tgan dzyudochilarning jismoniy rivojlanishini eng yuqori sport malakasiga ega dzyudochilar bilan qiyosiy baholash va sportchilarning jismoniy ko'rsatkichlaridagi farq va o'xshashliklarni aniqlash imkonini berdi.

Quyida keltirilgan dasturda (1-jadval qarang) 14 kishidan iborat tadqiqot guruhiga mansub dzyudochi qizlar uchun maxsus ishlab chiqilgan va hafta kunlari bo'yicha yuklamalar, bajariladigan maxsus mashqlar va ularning bajarish shiddatlari, hajmi taqsimlangan ma'lumotlari keltirilgan.

Undagi ma'lumotlarni tahlil qilish tadqiqot guruhiga mansub dzyudochi qizlar tomonidan sport darajasi bo'yicha birinchi va ikkinchi mashg'ulotlarda sportchilarning bo'y vazn indeksleri va morfologik tiplari alohida guruhlarga ajratilgan hamda bo'y vazn indeksleri, organizm morfologik tiplari va hayz davrlari inobatga olingan holda bajaradigan mashqlar majmuasini haftaning kunlari bo'yicha taqsimlanganlik darajasini aniqlash imkoniyatini beradi.

1. **Wadza** - Texnika
2. **Ne-wadza** – Umumiy parter holatidagi texnik harakatlar
3. **Katame-wadza** – Umumiy parter holatida ipponga olib keluvchi usullar
4. **Shimi-wadza** – Bo'g'ish texnikasi
5. **Osaekomi-wadza** – Ushlab turish holati
6. **Kansetsu-wadza** – Og'ritish usullari texnikasi
7. **Techi-wadza** – Umumiy tik holatda bajariladigan texnika
8. **Seoi-nage** - Yelkadan oshirib tashlash usuli
9. **Uchi-mata** – Ikki oyoq orqsidan oyoq bilan ko'tarib tashlash
10. **Ouchi-gari** – Tovondan tovon bilan ilib zarb bilan ortga yiqitish
11. **Kouchi-gari** – Chil usuli
12. **Haraya-goshi** – Qo'shsha usuli
13. **O-soto otoshi** - Orqadan chil berib zarb bilan yiqitish
14. **Ude Hishigi juji Gatami** – Qo'lga beriladigan og'ritish usuli
15. **Kesa-ude-gatami** – Ushlab turish holatidan og'ritish usulini bajarish
16. **Gyaku-juji-jime** – Bo'yindan dzyudocha orqali bo'g'ish

3.5-jadval.

MORFOLOGIK TIPLARGA ASOSLANGAN DZYUDOCHI QIZLARINING TAJRIBA GURUHI UCHUN MAXSUS DASTUR

№	Dzyudo devushki	1-Mashg'ulot (UJT va MJT mashg'uloti)				2-Mashg'ulot (TTT mashg'uloti)					YUklatma shidati	Bo'y vazn indeksi	Morfo tip	Hayz davri (kun)	Hafta kunlari			
		Mashq turi		Mashq turi		Mashq turi												
		30	20 min	20 min	20	40 min	20 min	15 min	15 min	15 min								
1	S.S.	UJT mashqlari	Maxsus TGiluchanlik va maxsus chaqqonlik mashqlari	Kuch va maxsus portlovchi kuchni rivojlantiruvchi aylanma mashqlari	Tayyorlik uchun URM va MJT mashqlari	Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Tachi-wadza Uchi-komi, Kansetsu wadza	Tachi-wadza Seoi-nage, ippon seoi-nage, o-goshi, Tsuru komi goshi	Ne-wadza Kansetsu wadza Kesa-ude-gatami,	Bajarilga usuller Yuzasidan Tachi wadzada va Ne-wadzada Randori	Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg'ula' loari	Past	362.8	Endomorf	34	Dushanba			
2	YU.										Past			28				
3	R.J.										Past			24				
4	U.F.										Past			28				
5	S.K.		Maxsus TGiluchanlik va maxsus portlovchi	Statik va dinamik kuchni rivojlantiruvchi aylanma mashg'ula' loar		Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Tachi-wadza Uchi-komi, Kansetsu wadza va Katame wadza	Tachi-wadza Ura-nage, Tai-otoshi, Sumi-gaeshi,	Ne-wadza Kansetsu wadza Ude-hishigi-juji-gatami			Ne-wadza Kansetsu wadza Ude-hishigi-juji-gatami	Past		321.3		Mezomorf	Past	21
6	X.S.																Past	21
7	I.S.																Past	28
8	M.N.																Past	28
9	YU.		Maxsus TGiluchanlik mashqlari	Maxsus kardinatsiyon va maxsus kuchni rivojlantiruvchi mashqlar		Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Ashi-wadza Uchi komi, Kansetsu wadza, Katame wadza	Tachi-wadza Osoto otoshi, Haraya-goshi, kouchi gari, Uchi-mata, Ouchi-gaeshi,	Ne-wadza Shimi wadza va Katame wadza sankoka jimi.			Ne-wadza Shimi wadza va Katame wadza sankoka jimi.	Past		379.4		Ektomorf	Past	28
11	S.K.																Past	21
12	S.K.																Past	24
13	U.F.																Past	24
14	M.N.		Past	24														
1	S.S.		UJT mashqlari	Maxsus TGiluchanlik va maxsus chaqqonlik mashqlari		Kuch va maxsus portlovchi kuchni rivojlantiruvchi aylanma mashqlari	Tayyorlik uchun URM va MJT mashqlari	Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Tachi-wadza Uchi-komi, Kansetsu wadza			Tachi-wadza Seoi-nage, ippon seoi-nage, o-goshi, Tsuru komi goshi	Ne-wadza Kansetsu wadza Kesa-ude-gatami,		Bajarilga usuller Yuzasidan Tachi wadzada va Ne-wadzada Randori		Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg'ula' loari	O'rta	362.8
2	YU.	O'rta			28													
3	R.J.	O'rta			24													
4	U.F.	O'rta			28													
5	S.K.	Maxsus TGiluchanlik va maxsus portlovchi		Statik va dinamik kuchni rivojlantiruvchi aylanma mashg'ula' loar	Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Tachi-wadza Uchi-komi, Kansetsu wadza va Katame wadza	Tachi-wadza Ura-nage, Tai-otoshi, Sumi-gaeshi,		Ne-wadza Kansetsu wadza Ude-hishigi-juji-gatami	Ne-wadza Kansetsu wadza Ude-hishigi-juji-gatami	O'rta	321.3	Mezomorf	O'rta		21			
6	X.S.												O'rta		21			
7	I.S.												O'rta		28			
8	M.N.												O'rta		28			
9	Yu.	Maxsus TGiluchanlik mashqlari		Maxsus kardinatsiyon va maxsus kuchni rivojlantiruvchi mashqlar	Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Ashi-wadza Uchi komi, Kansetsu wadza, Katame wadza	Tachi-wadza Osoto otoshi, Haraya-goshi, kouchi gari, Uchi-mata, Ouchi-gaeshi,		Ne-wadza Shimi wadza va Katame wadza sankoka jimi.	Ne-wadza Shimi wadza va Katame wadza sankoka jimi.	O'rta	379.4	Ektomorf	O'rta		28			
11	S.K.												O'rta		21			
12	S.K.												O'rta		24			
13	U.F.												O'rta		24			
14	M.N.	O'rta		24														
1	S.S.	UJT mashqlari		Maxsus TGiluchanlik va maxsus chaqqonlik mashqlari	Kuch va maxsus portlovchi kuchni rivojlantiruvchi aylanma mashqlari	Tayyorlik uchun URM va MJT mashqlari		Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Tachi-wadza Uchi-komi, Kansetsu wadza	Tachi-wadza Seoi-nage, ippon seoi-nage, o-goshi, Tsuru komi goshi	Ne-wadza Kansetsu wadza Kesa-ude-gatami,	Bajarilga usuller Yuzasidan Tachi wadzada va Ne-wadzada Randori	Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg'ula' loari	O'rt		362.8		EEdomorf	34
2	YU.		O'rta				28											
3	R.J.		O'rta				24											
4	U.F.		O'rta				28											
5	S.K.		Maxsus TGiluchanlik va maxsus portlovchi	Statik va dinamik kuchni rivojlantiruvchi aylanma mashg'ula' loar	Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Tachi-wadza Uchi-komi, Kansetsu wadza va Katame wadza		Tachi-wadza Ura-nage, Tai-otoshi, Sumi-gaeshi,	Ne-wadza Kansetsu wadza Ude-hishigi-juji-gatami	Ne-wadza Kansetsu wadza Ude-hishigi-juji-gatami	O'rta			321.3	Mezomorf	O'rta	21		
6	X.S.														O'rta	21		
7	I.S.														O'rta	28		
8	M.N.														O'rta	28		
9	YU.D.		Maxsus TGiluchanlik mashqlari	Maxsus kardinatsiyon va maxsus kuchni	Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Ashi-		Tachi-wadza Osoto otoshi, Haraya-goshi,	Ne-wadza Shimi wadza	Ne-wadza Shimi wadza	O'rta			379.4	ektomorf	O'rta	28		
11	S.K.														O'rta	21		
12	S.K.														O'rta	24		

13	U.F			rivojlaniruvchi mashqlar		wadza Uchi komi, Kansetsu wadza, Katame wadza	kouchi gari, Uchi-mata, Ouchi-gaeshi,	va Katame wadza sankoka jimi.			O'rta			24				
14	M.N.										O'rta			24				
1	S.S.	U.J.T. mashqlari	Maxsus TGiluchanlik va maxsus chaqqonlik mashqlari	Kuch va maxsus portlovchi kuchni rivojlaniruvchi aylanma mashqlari	Tayyorlik uchun URM va MIT mashqlari	Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Tachi-wadza uchi-komi, Kansetsu wadza	Tachi-wadza Seoi-nage, ippon seoi-nage, o-goshi, Tsuri komi goshi	Ne-wadza Kansetsu wadza Kesa-ude-gatami,	Bajarilga usulrs Yuzasidan Tachi wadzada va Ne-wadzada Randori	Maxsus tayyorgarlik mashg'ula' loari	Yuqori	362.8	endomor	34	Payshanba			
2	Y.U.M										Yuqori			28				
3	R.J.										Yuqori			24				
4	U.F										Yuqori			28				
5	S.K		Maxsus TGiluchanlik va maxsus portlovchi	Statik va dinamik kuchni rivojlaniruvchi aylanma mashg'ula'loar		Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Tachi-wadza Uchi-komi, Kansetsu wadza va Katame wadza	Tachi-wadza Ura-nage, Tai-otoshi, Sumi-gaeshi,	Ne-wadza Kansetsu wadza Ude-hishigi-juji-gatami						Yuqori		321.3	Mezomorf	21
6	X.S													Yuqori				21
7	I.S.													Yuqori				28
8	M.N													Yuqori				28
9	Y D													Yuqori		379,4	ektomorf	21
10	B.G		Maxsus TGiluchanlik mashqlari	Maxsus kardinatsiyon va maxsus kuchni rivojlaniruvchi mashqlar		Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Ashi-wadza Uchi komi, Kansetsu wadza, Katame wadza	Tachi-wadza Osoto otoshi, Haraya-goshi, kouchi gari, Uchi-mata, Ouchi-gaeshi,	Ne-wadza Shimi wadza va Katame wadza sankoka jimi.						Yuqori				28
11	S.K.													Yuqori				21
12	S.K.													Yuqori				24
13	U.F													Yuqori		24		
14	M.N													Yuqori		24		
1	S.S.	U.J.T. mashqlari	Maxsus TGiluchanlik va maxsus chaqqonlik mashqlari	Kuch va maxsus portlovchi kuchni rivojlaniruvchi aylanma mashqlari	Tayyorlik uchun URM va MIT mashqlari	Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Tachi-wadza uchi-komi, Kansetsu wadza	Tachi-wadza Seoi-nage, ippon seoi-nage, o-goshi, Tsuri komi goshi	Ne-wadza Kansetsu wadza Kesa-ude-gatami,	Bajarilga usulrs Yuzasidan Tachi wadzada va Ne-wadzada Randori	Maxsus tayyorgarlik mashg'ula' loari	O'rta	362.8	endomor	34	Juma			
2	Y.M										O'rta			28				
3	R.J.										O'rta			24				
4	U.F										O'rta			28				
5	S.K		Maxsus TGiluchanlik va maxsus portlovchi	Statik va dinamik kuchni rivojlaniruvchi aylanma mashg'ula'loar		Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Tachi-wadza Uchi-komi, Kansetsu wadza va Katame wadza	Tachi-wadza Ura-nage, Tai-otoshi, Sumi-gaeshi,	Ne-wadza Kansetsu wadza Ude-hishigi-juji-gatami						O'rta		321.3	Mezomorf	21
6	X.S													O'rta				21
7	I.S.													O'rta				28
8	M.N													O'rta				28
9	Y D													O'rta		379,4	ektomorf	21
10	B.G		Maxsus TGiluchanlik mashqlari	Maxsus kardinatsiyon va maxsus kuchni rivojlaniruvchi mashqlar		Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Ashi-wadza Uchi komi, Kansetsu wadza, Katame wadza	Tachi-wadza Osoto otoshi, Haraya-goshi, kouchi gari, Uchi-mata, Ouchi-gaeshi,	Ne-wadza Shimi wadza va Katame wadza sankoka jimi.						O'rta				28
11	S.K.													O'rta				21
12	S.K.													O'rta				24
13	U.F													O'rta		24		
14	M.N													O'rta		24		
1	S.S.	U.J.T. mashqlari	Maxsus TGiluchanlik va maxsus chaqqonlik mashqlari	Kuch va maxsus portlovchi kuchni rivojlaniruvchi aylanma mashqlari	Tayyorlik uchun URM va MIT mashqlari	Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Tachi-wadza uchi-komi, Kansetsu wadza	Tachi-wadza Seoi-nage, ippon seoi-nage, o-goshi, Tsuri komi goshi	Ne-wadza Kansetsu wadza Kesa-ude-gatami,	Bajarilga usulrs Yuzasidan Tachi wadzada va Ne-wadzada Randori	Maxsus tayyorgarlik mashg'ula' loari	O'rta	362.8	endomor	34	Shanba			
2	Y.M										O'rta			28				
3	R.J.										O'rta			24				
4	U.F										O'rta			28				
5	S.K		Maxsus TGiluchanlik va maxsus portlovchi	Statik va dinamik kuchni rivojlaniruvchi aylanma mashg'ula'loar		Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Tachi-wadza Uchi-komi, Kansetsu wadza va Katame wadza	Tachi-wadza Ura-nage, Tai-otoshi, Sumi-gaeshi,	Ne-wadza Kansetsu wadza Ude-hishigi-juji-gatami						O'rta		321.3	Mezomorf	21
6	X.S													O'rta				21
7	I.S.													O'rta				28
8	M.N													O'rta				28
9	Y D													O'rta		379,4	ektomorf	21
10	B.G		Maxsus TGiluchanlik mashqlari	Maxsus kardinatsiyon va maxsus kuchni rivojlaniruvchi mashqlar		Kimanodan ushlarlar, Kudzushi-wadza, Ashi-wadza Uchi komi, Kansetsu wadza, Katame wadza	Tachi-wadza Osoto otoshi, Haraya-goshi, kouchi gari, Uchi-mata, Ouchi-gaeshi,	Ne-wadza Shimi wadza va Katame wadza sankoka jimi.						O'rta				28
11	S.K.													O'rta				21
12	S.K.													O'rta				24
13	U.F													O'rta		24		
14	M.N.													O'rta		24		

2-jadval

Tana tuzilishini inobatga olgan holda parter holatida (*ne-wadza*) bajariladigan usullar va ushbu usullarni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar majmuasi

№	Ne-wadza	Ko'makchi mashqlar	M.T
1	a) Kami-shiho-gatame (Osaekomi-wadza) b) Kesa-ude-gatami (og'ritish usuli) v) Ude-garame (og'ritish usuli)	a) Qo'l va oyoq bilan tatamiga tayangan holda osilgan raqibni olib yurish b) Bir uchi mahkamlangan arqonga yuz tuban yotib tirmashib sudralish v) Bir uchi mahkamlangan arqonga oyoqlarni uzatib o'tirib tirmashib sudralish	Endomorf
2	a) Kesa-gatame (Osaekomi-wadza) b) Ude-hishi juji-gatame (og'ritish usuli) v) Sode-gruma jime (bo'g'ish usuli) shimi wadza	a) Qo'l va oyoq bilan tatamiga tayangan holda oyoq va belni chap va o'nga burish b) Tik turgan raqibga tirmashib atrofida harakatlanish v) Chalqancha yotgan holda 20 kg yuk bilan harakatlanish	Mezomorf
3	a) Yoko shiho-gatame (Osaekomi-wadza) b) Sankaku-jime (bo'g'ish usuli) Shimi wadza v) Ushiro-kesa-gatame (Osaekomi-wadza)	a) Chalqancha yotgan holda raqib qo'lidan ushlab oyoqlar yuqorida belni o'nga va chapga burish b) Chalqancha yotgan holda oyoqlar yuqorida belni o'nga va chapga burish v) Qo'l va oyoq bilan tatamiga tayangan holda osilgan raqibni olib yurish	Ektomorf

Yuqorida keltirilgan usullar va mashqlar majmuasining ma'zmoni shundan iboratki mashqlar va usullar majmuasi morfotiplardan kelib chiqqan holda tuzulgan. Bunga ko'ra endomorf, mezomorf, ektomorf tana tuzulishiga ega bulgan dzyudochi qizlar guruhlari uchun alohida – alohida parterda (*Ne-wadza*) usullar ketma-ketligi keltirilgan bo'lib, bunga ko'ra endomorf tana tuzulishiga ega bo'lgan. Dzyudochi qizlar uchun ne-wadzada. a) Kame shiho gatame (Osaekomi-wadza) ushlar holati. b) Kese ude hishe gatami (osokome) ushlar holati. v) Kese ude-gatami (og'ritish usuli). Mezomorf tana tuzulishi uchun. a) Kesa gatami (Osaekomi-wadza) ushlar holati. b) Ude hishe judji gatami (shimi-wadza) bo'g'ish usuli. Sode-gume Ektomorf tana tuzulishi uchun quyidagi usullar ketma-ketligi tavsiya etiladi. a)Yoko-shiho gatame (Osaekomi-wadza) ushlar holati b) Sankoka jimi (bo'g'ish usuli) Shimi wadza v) Ushiro keso-gatami kabi usullar tavsiya etilgan bo'lib bu usullarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun maxsus mashqlar tavsiya etiladi. Bu mashqlar aynan shu usullarni muvaffaqiyatli bajarish uchun xizmat qiladi. Maxsus mashqlarning noodatiyligi shundan iboratki mashqlar orqali ham kuch, ham egiluvchanlik ham maxsus chidamlilik kabi jismoniy sifatlar bir vaqtda rivojlanadi,

bu texnik harakatlar parterda muvofaqiyatli amalga oshirish uchun juda muhim hisoblanadi.

1. **Kami-shiho-gatame**- Bosh tomondan kelib ushlab turish (Osaekomi-wadza)
2. **Kesa-ude-gatami** – Ushlab turish holatidan og‘ritish usulini bajarish
3. **Ude-garame** – Tirsakga qo‘l orqali beriladigan og‘ritish usuli
4. **Kesa-gatame** – Yon tomondan kelib ushlash holati (Osaekomi-wadza)
5. **Ude Hishigi juji Gatami** – Qo‘lga beriladigan og‘ritish usuli
6. **Sode-gruma jimi** - Bosh tomondan kelib bo‘yindan dzyudocha orqali bo‘g‘ish
7. **Yoko shiho-gatame**- Oyoqlar orasidan va belbog‘dan ushlab turish holati
8. **Sankaku-jime** – Oyoqlar orasidan kelib dzyudocha orqali bo‘g‘ish
9. **Ushiro-kesa-gatame** – Qo‘lni qo‘ltiqqa qisish orqali ushlab turish

3-jadval

Tik turib (Tachi-vadza) bellashuvlarni tashkil qilish uchun morfotiplarga asoslangan usullarni ketma-ketligi

№	Techi-vadza	Ko‘makchi mashqlar	Morfotip
1	a) Seoi-nage b) O-goshi v) Ippon seoi-nage g) Seoi otoshi d) Ouchi-gari	Uchi komi (Usulni ohirgi fazasini bajarmaslik)	Endomorf
2	a) Ura-nage b) Hikikomi-gaishi v) Tani-otoshi g) Sumi-gaeshi d) Haray-goshi		Mezomorf
